

## BO'LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Мелиев Гафур Олимкулович

Тошкент ҳарбий округи бўлум катта офицери,  
мустақил изланувчи, подполковник

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada yosh harbiy xizmatchilarni harbiy xizmat sharoitlariga psixologik moslashish masalalari yoritilgan. Moslashish yosh harbiy xizmatchilarning hayotidagi muhim omillardan biri sanaladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Moslashish, harbiy xizmatchi, harbiy xizmat, jamoa.*

**Kirish.** Moslashish tushunchasi XIX asrda kelib chiqqan bo‘lib asosan biologiyada asosiy me’zon sifatida ishlatilgan. Keyinchalik ushbu tushuncha organizm hayotiy faoliyatining turli jabhalariga, insonning shaxsiyatiga va hattoki jamoaviy xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Moslashish yangi sharoitlarda odatiy hatti-harakatlarning yetishmasligini to‘ldirib boradi. Moslashish tufayli g‘ayrioddiy sharoitda tananing maqbul ishlashini tezlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Agar moslashish ro‘y bermasa, faoliyat predmetini o‘zlashtirishda qo‘srimcha qiyinchilaklar yuzaga keladi. Moslashish u yoki bu a’zolarning vazifalarini qayta tiklash bilan bog‘liq yangi ko‘nikmalar, odatlar, fazilatlarni hosil qiladi va organizmni, shaxsni atrof muhitga moslashishiga olib keladi. Insonning moslashuvchanligini fikrlash, iroda, qobiliyat, bilim va tajriba tartibga soladi. Moslashish nafaqat tananing yangi sharoitlarga moslashishida, balki qiyinchiliklarni yengishga imkon beradigan xususiyatlarni hosil qilishi bilan ifodalanadi.

Hozirgi vaqtida aksariyat yoshlar yangi sharoitga qiyinchiliklarsiz moslashish imkonini beradigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning yuqori mezonlariga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan bo‘linma ofitseriga me’yorlarga muvofiq shaxsning boshlang‘ich sifat va imkoniyatlarini, bu sifatlarni rivojlantirishning yo‘llarini hisobga olgan holda moslashish jarayonini amalga oshirishning optimal usullarini qidirish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ushbu mavzuni ahamiyatli deb hisoblash mumkin.

Moslashish (*Lotincha*) - bu tananing, shaxsning, uning xarakterlar tizimining alohida ta’sirlar yoki o‘zgargan yashash sharoitlariga moslashishi.

Qaysi sharoitlarda va qaysi mexanizmlar vositada muhitga moslashish sodir bo‘lishiga qarab, har xil moslashishning turlari ajraladi:

- organizmdagi turli tizimlarining fiziologik o‘zaro ta’siri;
- hayotiy ahamiyat ta’siriga mos ravishda a’zolar funksiyalarida moddalar almashinuvida biologik o‘zgarish;
- psixik jarayon darajasidagi vazifalarga, xususiyatlarga, holatlarga, masalan qorong‘uda ko‘z sezgirligini oshishi kabi sharoitlarga insonning psixologik moslashishi;

- yangi jamoadagi o‘zaro munosabatlarga ijtimoiy-psixologik moslashish.

Moslashishning bu turlari bir vaqtning o‘zida o‘zaro aloqada bo‘lishi va o‘zini namoyon qilishi mumkin. Agar inson bo‘lajak faoliyatning ehtimoliy holatlari bilan tanish bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘nalish uchun zarur bo‘lgan bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lsa yangi vaziyatga moslashish jarayoni tezlashadi. Muvaffaqiyatli moslashish uchun o‘ziningning hatti-harakatlarini boshqarishni, ichki holatini muhit talablari bilan muvofiqlashtirishni, hayotning yangi vaziyatlariga muvofiq tayyorlikni rivojlantirishni o‘rganish kerak. Moslashish muammolarining dolzarbligi, harbiy faoliyat uchun harbiy xizmatchilarni tayyorlash manfaatlarida uning mohiyati, tarkibi, xususiyatlari va unga samarali ta’siri yo‘llarini faol va sermahsul izlanishi shartligiga olib keldi. Ammo shu bilan birga, tabiiy ravishda “Moslashish” atamasiga ko‘plab tarif berishga urinishlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Harbiy xizmatchilarning moslashish jarayonida ularning psixologik xususiyatlari va sifatlari taqdim etilgan yangi faoliyat talablarga muvofiq qayta tiklash sodir bo‘ladi. Motivatsion kompleksni qayta tiklash harbiy xizmatchida kasbiy qiziqishlar, nomuvofiqliklar, ideallar, e’tiqodlar, yangi istiqbollar va hayotiy maqsadlarining paydo bo‘lishiga yoki kuchayishiga olib keladi. ularning mahorati, ko‘nikmalarini va odatlarida sezilarli o‘zgarishlardir oshkor bo‘ladi. Ulardan harbiy jamoadagi xulq-atvor talablariga javob beradiganlari rivojlanadi, javob bermaydiganlari - zaiflashadi va yo‘qoladi. Yosh harbiy xizmatchilar bilan butlangan harbiy jamoalar umumiyligi va farqlovchi xususiyatlariga ega. Har bir yosh harbiy xizmatchining harbiy xizmatni o‘tash shartlariga moslashish bo‘yicha jiddiy ishlarni amalga oshirmsandan turib, individual tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, axloqiy, jangovar va psixologik tayyorgarlik samaradorligini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlashning imkonini bo‘lmaydi.

Harbiy xizmatdagi eng muhim davr moslashish davri bo‘lib - shaxs ichki dunyosida qayta tiklanish, uning yashash tarzi va maishiy hayotida harbiy muhitning talablariga moslashish sodir bo‘ladi. Ushbu davrning qanchalik darajada muvaffaqiyatli o‘tishi, keyingi xizmatni davom etishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu davrning muhim jihatni, shaxs qanday qilib atrofdagilar bilan munosabatlarni tiklashi, nizoli holatlarda o‘zini qanday tutishi, o‘zining munosibligini qanday saqlashi, o‘zining “Meni”, qaysi psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi hisoblanadi.

Armiyadagi harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni juda dinamik va uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotga munosabat va boshqalarga bog‘liq. Ijtimoiy-psixologik moslashuvning sabablari yangi o‘ziga xos muhitda sodir bo‘ladigan va yoshlар fuqarolik hayotida uchramagan ko‘plab omillardir:

- harbiy-professional faoliyat qat’iy tartibga solinadi;
- umum harbiy nizomning talablari;
- munosabatlarning yangi shakllari;

- murakkab harbiy texnikaga texnik xizmat ko'rsatish;
- faoliyatning o'zaro bog'langan jamoaviy xususiyati;
- hal qilinadigan vazifalarning umumiyligi.

Yosh harbiy xizmatchirning harbiy xizmatga ijtimoiy-psixologik moslashishida harbiy jamoa o'zining muhim spetsifik xususiyatiga ya'ni, harbiy faoliyatning maqsad va vazifalarini bajarish, amalga oshirilishi yuqori mas'uliyat tug'diradigan maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega. Harbiy jamoalar harbiy-kasbiy faoliyatni tartibi va tashkil etish xususiyarlari mazmuni, birgalikda o'zaro bog'liq bo'lgan harbiy mehnat turlari, intizomning holati, axloqiy va psixologik muhit, faoliyat yutuqlari va natijalariga qarab bir-birlaridan farq qiladi. Yosh harbiy xizmatchilarining tasavvurlari yangi sharoitlarda kengayadi va chuqurlashadi. Ushbu qaytatkash natijasida paydo bo'lgan xulqi, psixologik ma'lumotlar, xizmat o'tash sharoitlarida mukammal o'quv, xizmat va jamoadagi faoliyatini ta'minlaydi va bu o'z navbatida, ularning harbiy jamoalarga moslashishining o'sishi haqida guvohlik beradi. Bunday qayta tiklashning asosiy psixologik mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- o'z-o'zini ishontirish;
- o'zini-o'zi tiklash;
- o'zini-o'zi taqdirlash, taqlid;
- o'zini-o'zi majburlash;

**o'zini tasdiqlash va boshqalar.** Ularning yordami bilan shaxs o'zining yangi turlari va shartlariga muvofiq o'z faoliyatini ongli ravishda tartibga solishni amalga oshiradi. Ushbu mexanizmlarning barchasi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qilib, yangi faoliyat sharoitlarida insonning psixologik tarkibini, faoliyat shakli va xulq-atvorni aniqlaydi. Moslashishning mohiyati va amalga oshirish mexanizmlariga bunday yondashuv, moslashish inson ijtimoiylashtirishuvining elementi deb hisoblashga va uni jamiyatning to'liq a'zosi sifatida ishlashiga imkon beradi. Psixologik adabiyotlarda turli sabablarga moslashishning turlari tasnifiga katta e'tibor beriladi. Manbalarda uning turlari shunday ajratiladi: biologik, fiziologik, psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy

va boshqalar. Harbiy xizmatchilarining faoliyatidan kelib chiqib moslashishning asosiy turlari sifatida taqsimlash mumkin:

- o'quv faoliyatiga moslashish (didaktik);
- harbiy-funksional (kasbiy-jangovar) xizmat faoliyatiga moslashish;
- jamoa faoliyatiga moslashish;
- harbiy jamoaning maishiy hayotiga moslashish.

Agar harbiy jamoa zaif bo'lsa, jamoaning aksariyat a'zolari xizmat va jamoat vazifalarini yechishda passivdirlar, komandirlar ishning asl mohiyatini bilishmaydi, aks holda harbiy xizmatchida "Moslashishi" ning boshqacha qiyofasini ko'rishingiz mumkin.

Zamonaviy armiyada harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar, moslashish jarayonidan kamida ikki marta o'tkazishi kerak:

- ular maxsus o'quv bo'linmalariga o'qishga kirganda;
- ular keyingi xizmatini davom ettirish uchun jangovar bo'linmalarga tayinlanganda.

Harbiy xizmatchilarining ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, harbiy-professional yo'nalish ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi bo'lajak harbiy xizmatchilarda kasbiy moslashuvchanlikni oshirishni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi bo'lajak harbiy xizmatchilarda kasbiy moslashuvchanlikni oshirishni keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilsa, moslashuvchanlikka xos xususiyatlar aniqlansa, kasbiy moslashuvchanlik ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tadqiq etilsa, u holda harbiy xizmatchilar uchun shart sanalgan ko'plab psixologik sifatlarning aniqlanishi ehtimoldan holi bo'maydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 1.Авдеев В.В., Чернов С.А., Глемба Л.В. Теория и практика воспитательной работы: Учебное пособие. - Новосибирск: Новосибирское ВВКУ, Ч. 1, 2008. - 200 с.
2. 2.Александрович П.И., Малютин А.Г., Сенокосов Ж.Г. Психологический анализ трудностей адаптации военнослужащих к армейской жизнедеятельности. - Рига: Рижское высшее военно-политическое училище им. Бирюзова С.С., 1991. - 89 с.
3. 3.Андреева Д.А. О понятии адаптации. Исследование адаптации студентов к условиям учебы в Вузе. В кн.: Человек и общество: Проблемы интеллектуального и культурного развития студенчества. - Л.: ЛГУ, 1973. - 34 с.
4. 4.Артемьева Е.Ю., Мартынов Е.М. Вероятностные методы в психологии. - М.: 1975. - 206 с.
5. 5.Балл Г.А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности. Вопросы психологии. - М.: 1989. - с. 92-100.
6. 7.Бачерников Н.Е. Ситуационные реакции у военнослужащих: Дисс. д-ра мед.наук. - Л.: ВМедА, 1965. - 545 с.
7. 8.Маклаков А.Г. Военная психология. - СПб, 2004. - 65 с.
8. 9.Медведев Г.П., Бубин Б.Г., Колесников Ю.С. Адаптация - важная проблема педагогики высшей школы. - М.: Советская педагогика, 1969. - 31 с.
9. 10.Муцинов С.С. Молодые воины: воспитание и адаптация в коллективе. - М.: Институт военной истории МО СССР, 1989. - 86 с.